

# AUTIZM SINDROMIGA CHALINGAN BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI

## NUQSONLARNI OLDINI OLISH VA KORREKSIYALASH

Axrорова Севинч Аброровна

Максус педагогика кафедраси о'қитувчиси

sevinchaxrorova0@gmail.com

**Annotatsiya:** Autizmning asosiy belgisi reallikni qabul qilishning buzilishi. Autizmdan qiynalayotgan bola hech kim bilan muloqotga kirishishni hoxlamaydi. Hatto, kishilarda bola og'riqni ham sezmaydigandek tasavvur paydo bo'ladi. Nutqi sekin rivojlanadi. Bola har qanday yangilikdan qo'rqadi, takroriy harakatlarni bajaradi. Agar ota-onada bolada autizm alomatini payqasa, zudlik bilan bolalar mutaxassisiga murojaat etishlari zarur. Ayni vaqtda bolalarni rivojlantiruvchi ko'plab markazlar tashkil etilgan bo'lib, u yerda tashxis qo'yishga hamda samarali davolanishga yordam berishadi.

**Kalit so'zlar:** Erta bolalar autizmi, o'smirlar autizmi, kattalar autizmi, TEACCH, ABA, Son-Rise, predmetoterapiya, sensor integratsiya, peks terapiya, Flour Time.

Atrofimizda xatti-harakatlari real voqeylik bilan bog'liq bo'lмаган, yonidagilar bilan muloqot qilishni xohlamaydigan, yolg'izlikni yoqtiradigan, fikrlashi boshqalarga o'xshamaydigan insonlarga nisbatan "sal g'alatiroq" degan iborani ishlatamiz. Bunday holatni tibbiyotda "autizm" deb atashadi.

Autizm (grekcha "autos" – "o'zim" degan so'z) – bu ruhiyatning o'ziga xos holati bo'lib, bemor tashqi olam, atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaydi. U yolg'izlikni yoqtiradi. Yana bir xil xatti-harakat va shunday so'zlarni takrorlaydi. Kasallikka doir "autizm" terminini fanga 1912 yilda E.Bleyler kiritgan. Uning fikricha, xasta odam o'z olamida yashaydi. Fikrlashi boshqalarnikiga o'xshamaydi. Ularning xatti-harakatlari real voqeylik bilan bog'liq emas. Bemorlarning harakatlarida hissiy kechinmalar asosiy o'rin tutadi. Bu kasallik sindromi o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'p uchraydi. Kasallikning ilk belgilari uch yoshgacha kuzatiladi. Ba'zan klinik belgilari barvaqt aniqlanishi ham mumkin.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2000 yilda autizmning tarqalishi har 10.000 bolaga 5-26 holat to'g'ri kelgan. 2005 yilda 250 - 300 nafar bolaga o'rtacha bitta autizm holati

to'g'ri kelardi, bu bola yoshidagi qandli diabet, Daun sindrom yoki onkologik kasallikkardan ham yuqori degani. Jaxon Sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, 2008-yilda har 150 nafar bolaga 1 ta autizm holati to'g'ri kela boshladi. Shu vaqtan e'tiboran Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) jamiyat uchun muammoning jiddiyligi hamda asoratlaraning og'irligini tushungan holda 2 aprelni «Butunjahon autizm muammosi haqidagi axborotni tarqatish kuni» deb elon qildi. 2012 yilda Amerikadagi kasallanishni nazorat qiliish markazi har 88 nafar bolaga 1 ta autizm holati to'g'ri kelganini ma'lum qildi. Qariyb 10 yil ichida autizmdan qiyonalayotgan bolalar soni 10 baravarga ko'paygan. Achinarlisi, bunday o'sish kelgusida ham davom etishi mumkin.

Psixiatrlar bolada autizm borligini darrov aniqlashga qiyonalishadi. Bunga autizm alomatlari normal rivojlanayotgan bolada ham kuzatilishi sabab bo'ladi. Shu bois tashxis ko'pincha kechikib qo'yiladi. Autizm uchun xilma-xil holatlar xos, bunda go'dak bor-yo'g'i 2-3 ta alomatga ega bo'lishi mumkin, bu ham tashxis quyishni qiyinlashtiradi.

Bolalarda autizm sirli kasallik hisoblanib, har bir bemor o'z alomatlariga ega bo'ladi. Biroq har bir autizm bemoriga umumiylar belgilar xosdir va ular ushbu xastalikning borligiga asos bo'la oladi. Bolalar autizmi alomatlari yoshga bogliqdir. Shuning uchun 4 ta asosiy alomatlar guruhi ajratib ko'rsatiladi: erta bolalik autizmi (2 yoshgacha bolalarda), bolalar autizmi (2-11 yoshgacha bolalarda), o'smirlar autizmi (11 - 18 yoshgacha bo'lgan o'spirinlarda) va kattalar autizmi(18 yoshdan keyin).

Erta bolalar autizmi etiologiyasi haligacha aniq emas. Autizm asosan o'gil bolalarda kuzatiladi va ijtimoiy adaptasiya buzilishi, muloqot rivojlanishi va psixika buzilishi bilan ifodalanadi. Jumladan:

- ◆ Tez ta'sirlanishadi (masalan, chiroq yoki arzimagan shovqin ham ularni chuchitib yuboradi);
- ◆ Go'dakda nutq rivojlanishi sust kechadi;
- ◆ Bola ota-onasining ham ko'ziga karamaydi, nigohi boshqa tomonda bo'ladi
- ◆ Go'dak onasiga og'lanib qolmaydi (u ketganda yig'lamaydi va kelganda kulmaydi);

- ◆ Bola boshqa bolalar bilan tajovuzkorona munosabatda bo'ladi, ular bilan o'ynashni va gaplashishni xoxlamaydi;
- ◆ Go'dak yangi o'yinchoqlarga qiziqish bildirmaydi, faqat bittasi bilan o'ynashni ma'qul ko'radi. Erta bolalik autizmni 4 guruhga bo'lib tasniflash mumkin:

Birinchi guruh. Sodir bo'layotgan hodisalarga umuman e'tibor bermasligi bilan ajralib turadi. Muloqot qilganda go'dak noqulaylikni his etadi, hatto, ota-onasi ham farzandini o'ziga qaratishga yoki kulishga ko'ndirolmaydi. Nigohlarning to'qnashishi va jismoniy teginishlardan qochadi.

Ikkinci guruh. Atrofdagi olamdan ajralib qolganligi bilan ifodalanadi. Bola tashqi dunyo bilan munosabatlarda o'ta talabchan bo'ladi, faqat ota-onasi va yaqin kishilari bilan muloqotda bo'ladi. Bitta kiyim, muayyan sharoit va taomga bog'lanib qoladi. Odatdagi holatdan har qanday chetga chiqish asabiy portlashga olib keladi. Bu guruhdagi bolalar qo'rquv hissini qattiqroq tuyishadi, undan o'ta ta'sirlanishadi.

Uchinchi guruh. Autistik qiziqishlariga o'ralib olganligi bilan ajralib turadi. Bola o'z qiziqishlarini atrofdagi olamdan yashirishga urinadi. Bu qiziqishlar bilim olishga bog'liq bo'lmaydi, ular qayg'uli, daxshatli, tajovuzkorona xususiyatga ega bo'ladi.

To'rtinchi guruh. Atrof-muhit bilan munosabatga kirishishi haddan tashqari qiyinligi bilan ifodalanadi, mazkur guruhga mansub bolalar ko'ngli nozikligi va gap ko'tarolmasligi bilan ajralib turishadi. Qandaydir to'siqla duch kelsa yoki yoqmaydigan gapni eshitib qolsa, munosabatlardan qochishadi.

Erta bolalar autizmi sindromi bu nafaqat bola yoshidagilar balki kattalarining ham muammosi, negaki autizm bir necha yillardan sung ham yo'qolib ketmaydi. Biroq erta tashxis qo'yish va mazkur kasallikni tuzatish autizmdan qiynalayotganlarning atrofdagilar bilan munosabatga kirishishiga ko'maklashadi.

Olimlar bolalarda autizmning kelib chiqish sabablarini hali-xanuz aniqlay olishgani yo'q. Mazkur masalaga oid nazariyalar juda ko'p, biroq ulardan birortasi ham klinik tasdig'ini topganicha yo'q. Aksariyat olimlarning fikricha, bolalar autizmi irsiy kasallik, lekin autist bolalar soppa-sog' oilalarda ham dunyoga kelishmoqda. Olimlarning aniqlashicha, ko'pincha autizm birinchi farzandda qayd etiladi. Mazkur kasallikka homiladorlik davrida onadagi virusli infeksiya (qizilcha, qizamiq, suvchechak) sabab bo'lishi ehtimoldan holi emas. U go'dakning bosh miya tuzilishida

organik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bu esa keyinchalik bolalar autizmiga olib keladi. Bolalarda autizm alomatlarini go'dakligidayoq payqash mumkin, ko'pincha bu dard 3 yoshlarda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Autizm alomatlari bolaning yoshi va rivojlanish darajasiga qarab o'zgarishi mumkin.

Kattalardagi autizm ruhiyatning jiddiy buzilishi bilan ifodalanib, atrofdagi olamga moslashish va ijtimoiylashish darajasini keskin pasaytiradi. Erta yoshda bu kasallikka tashxis qo'yish juda mushkul. Negaki, hatti-xarakatidagi turli motorik va nutqidagi o'ziga xosliklarni kattalar bolaning yoshiga va fe'l-atvoriga oid deb hisobplashlari mumkin. Biroq katta yoshda autizm alomatlari atrofdagilarga yaqqol sezilib qoladi. Mazkur xastalik etiologiyasi haligacha to'liq o'rganilmagan. Irsiy va gen o'zgarishiga oid farazlar mavjud xolos. Boz ustiga, autizm bilan ko'pincha erkaklar xastalanishadi.

Katta yoshli odam autizmdan qiynalsa, darrov ko'zga tashlanib qoladi. U sodir bo'layotgan voqeа hodisalarga befarq qaraydi, hissiyotga berilmaydi va o'ta loqayd bo'ladi. Odam xuddi o'z dunyosida yashayotgandek tuyuladi. U begonalar bilan istar-istamas muloqotga kirishadi. Faqat qarindoshlari va yaqin kishilar bilan munosabatda bo'ladi. Autistlarni quruq gapdan ko'ra sukutni afzal biladigan introvertlardan ajrata bilish muhimdir. Autistlarning aqliy qobiliyati past bo'ladi, ko'rsatkichi 50 dan oshmaydi va biror nimani o'rganishi juda qiyin.

Autizmdan qiynalayotgan hamda muloqotga aralashmaydigan katta yoshli kishilar o'z fikr-hayollari bilan band bo'lishadi. Ular turli bema'ni hatti-xarakatlarni takrorlayverishi mumkin. Kattalar autizmi ko'pincha miyaga o'rashib qolgan g'oyalar bilan kechadi. Bu vaqtda ular atrofdagi olamga loqayd bo'lib qolishadi. Ularni bu holatdan faqat birorta kutilmagan, notabiyy vaziyat chiqarishi mumkin. Ko'pincha autizmdan qiynaladigan bemorlarda tutqanoq kuzatiladi bu ko'pincha og'ir asoratlarga olib keladi. Ma'lumki, autistlarning qariyb yarmi o'ziga shikast yetkazib qo'yishadi. Bunday bemorlar nazorat, parvarish va e'tiborda bo'lishi talab etiladi, davolash samaradorligi esa kasallik bosqichi, darjasи va har bir autistning o'ziga xosligiga bog'liqdir.

Shuni xulosa qilish mumkinki, bolalar autizmini korreksiyalash bu uzoq mashaqqatli, murakkab jarayon bo'lib, odamning ruhan va jismonan tinka-madorini

quritadi. Bunday bolalarning ota-onasi shunga tayyor turishlari kerakki, kasallikka qarshi kurashish uzoq davom etadi va muvaffaqiyatsizlik bilan tugashi ham mumkin. Dori-darmonlar bilan davolash bolalar autizmida juda samarali vosita hisoblanmaydi. Biroq ular qo'shilib keluvchi boshqa alomatlarni bartaraf etishi mumkin.

Amaliyotda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga, ayniqsa autizm bilan kasallangan bolalar uchun mo'ljallangan korreksion metodikalar ko'p emas. "Alovida e'tiborga muhtoj" bolaga nisbatan birlamchi tibbiy va psixologik yondashuvdan, shuningdek, pedagogik uslublardan farqlanuvchi asosiy metodika va texnologiyalar mavjud. Bular - TEACCH, ABA, Son-Rise, Predmetoterapiya, Sensor integratsiya, Peks terapiya va Flour Time kabi metod va texnologiyalardir.

### **Adabiyotlar:**

1. Yunusov, M. (2020). КАР ВА ЗАИФ ЭШИТУВЧИ БОЛАЛАР ТАЪЛИМИ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(76). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6465](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6465)
2. Yunusov, M. (2020). THE IMPORTANCE OF MODERN TECHNICAL DEVICES IN THE DEVELOPMENT OF HEARING. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(71). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6366](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6366)
3. Yunusov, M. (2020). Методика обучения детей с нарушением слуха на основе мультимедийных средств. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(71). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6367](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6367)
4. Yunusov, M. (2020). Мактабгача таълим жараёнига мультимедиа технологиясини татбиқ этиш. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(75). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6480](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6480)
5. Yunusov, M. (2021). MAXSUS TA'LIM JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://journal.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/711>
6. Yunusov, M. (2021). ESHITISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://journal.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1190>

7. Axrorova, S. (2020). HOZIRGI ZAMONDA AUTIZMLI BOLALARING TA'LIM-TARBIYA MUAMMOSI . *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(75). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6485](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6485)
8. Axrorova, S. (2020). AUTIZMLI BOLALARGA TASHXIS QO'YISH USULLARI. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(74). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6487](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6487)
9. Axrorova, S. (2020). Медико-педагогические и психологические основы подготовки детей с синдромом аутизма к социальной жизни. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(74). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6488](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6488)
10. Axrorova, S. (2021). РАННИЙ ДЕТСКИЙ АУТИЗМ И РАБОТА ПО РАЗВИТИЮ РЕЧИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(2). извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1788>
11. Axrorova, S. (2021). ИГРА КАК СРЕДСТВО КОРРЕКЦИИ АУТИСТИЧЕСКОГО ПОВЕДЕНИЯ У ДЕТЕЙ ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА ТЕРАПИИ ИГРОЙ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/710>
12. Muzaffarova, X. (2020). OQUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK OYIN VA MASHQLARNI TANLASH TEKNOLOGIYASI. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
13. Muzaffarova, X. (2020). Мактабгача таълим жараёнига мультимедиа технологиясини татбиқ этиш. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
14. Muzaffarova, X. (2020). Pedagogik texnologiyalar va ularni maxsus ta'lif mussasalariga tadbiq etish. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
15. Muzaffarova, X. (2020). Мактабгача таълим жараёнига мультимедиа технологиясини татбиқ этиш. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
16. Muzaffarova, X. (2020). ДИДАКТИК ЎЙИН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ-ПЕДАГОГИК ФЕНОМЕН СИФАТИДА. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
17. Muzaffarova, X. (2020). Логопедик машғулотларда болалар сўз бойлигини ошириш бўйича тавсиялар. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
18. Muzaffarova, X. O'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari. *Bola va Zamon jurnal*. T, (2-2019).
19. Muzaffarova, X. (2020). Kar bolalarda og'zaki nutqni shakllantirish. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
20. Islomova, O. (2021). UMUMTA'LIM MAKTABLARI QOSHIDAGI LOGOPEDIYA SHAXOBCHALARI ISHINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA PEDAGOGIK TAVSIYALAR. *Журнал Педагогики и психологии*

в современном образовании, (2). извлечено от  
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2619>

- 21.Islomova, O. (2020). UMUMIY TIPDAGI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALAR NUTQINI TUZATISHDA SIFATLI LOGOPEDIK XIZMAT. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1)
- 22.Djurayeva, S. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini kompyuter texnologiyalari orqali rivojlantirish. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 23.Djurayeva, S. (2020). INNOVATSION TEXNIKALAR YORDAMIDA YO'QOTILGAN ESHITUVNI KOMPENSATSIYALASH. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 24.haqberdiyev, jamoliddin. (2020). THE IMPORTANCE OF MODERN TECHNICAL DEVICES IN THE DEVELOPMENT OF HEARING. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(64). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6183](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6183)
- 25.haqberdiyev, jamoliddin. (2020). THE IMPORTANCE OF COCHLEAR IMPLANT IN THE EDUCATIONAL SYSTEM OF CHILDREN WITH HEARING DISORDERS . *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(80). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6742](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6742)